

**BUYUK HARBIY SARKARDALARNING HARBIY MAHORATI VA MASHHUR
JANGLARI, JAHON HARBIY SAN'ATI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI**

Shamshiyev Ravshan Rustam o'g'li

Podpolkovnik Qurollanish va otish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan buyuk harbiy sarkardalarumuz Sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburshohlar shaxsiy namuna va qahramonliklari, kuchlar nisbati noteng bo'lgan janglarga kirib, ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritganliklari, vaziyatni tez payqab oluvchi strateg, raqiblarining zaif tomonlarini sezgirlik bilan aniqlab oluvchi, qiyin sinovlardan ham qo'rqmaydigan, og'ir sharoitlarda qat'iy mardona qarorlar qabul qila oladigan himmatli va saxovatpesha podshoh bo'lganlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Qaror, streteg, sezgirlik, jangovar tartibi, taktika, "to'lg'ama" taktikasi, manyovr, ruhiy atakalarni*

Buyuk sarkardalar **Sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburshohlar** "Buyuk Xorazmshohlar", "Buyuk Temuriylar", "Buyuk Boburiylar" saltanatlarini qurib, ularni adolatli qonunlar bilan bezaganlar. Ular Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari taqdirini taraqqiyotga, renessanga yetaklagan shaxslardir. "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi boy meros egalari.

Sulton Jaloliddin Manguberdi (1220-1231)

O'zbek xalqining dovyurak o'g'loni, jasoratda tengsiz pahlavon. U buyuk foh Chingizxonga katta mintaqada yagona raqib bo'la olgan sarkadadir.

Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi" asarida "Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko'rmagan. Bu zotning azmu shijoati oldida hatto buyuklikning o'zi ham ta'zim qiladi, degan so'zlari yaqqol tasdiqlaydi", - degan yuksak bahoni berdi.¹

Tarixchi Nasaviy uni "Sherlar orasida eng zo'r arslon edi", - deb ta'riflasi, Alouddin Atomalik Juvayniy "Jahonda biror kishi bundayin mardni ko'rmagan, ilgarigi nomdolar orasida bo'lganini ham eshitmagan... U sherlar orasida eng zo'r arslon, dovyurak chavandoz, lashkar orasida eng botiri edi", - desa, Ibn al-Asir esa "Musulmon mamlakatlarning hukmdorlari orasidan Sulton Jaloliddindan boshqa hech birida mo'g'ullarga qarshi muqaddas urush qilishga qodirini ko'rmadim. Bunday istak ularning hech qaysisida yo'q edi", - degan yuqori bahosi bor.

Mo'g'ullar Xorazm davlati chegaralaridan o'tganida Jaloliddin otasiga mardlik qanday bo'lishi kerakligi haqida so'zlar ekan: "Siz qo'shinga buyruq bering-da,

¹Mirziyoyev SH.M. Chinakam mardlik va Vatanga cheksiz sadoqatning yorqin timsoli <https://kun.uz/news/2022/08/29/shavkat-mirziyoyev-urganchda-jaloliddin-manguberdi-haykalini-ochib-berdi>

o'zingiz bir chetda bizning g'alaba qozonishimizni kuting!", – degan jur'atli taklifni bildirgan edi.

Jaloliddin ozodlik bayrog'i ostida Eron, Iroq, Kavkaz, Hindistondagi kuchlarni birlashtirib, mo'g'ullarga qarshi qahramonona olib borgan janglari jami 15 tadan ortiq jangdan 10 tasida ajoyib g'alabalar qozongan: Niso, Qandahor, Valiyon, Parvon, Gardiz, Shatra, Basra, G'arni, Ray, Isfaxon. Eng ajoyibi Parvon dashtidagi g'alabadir.

Sind daryosi bo'yidagi uch kunlik jang shunday ayovsiz bo'lgandiki, boshqa janglarni uning oldida bolalar o'yini deyish mumkin edi. Jangda Jaloliddinda 30 ming, mo'g'ullarda 250 ming qo'shin bo'lgan, shundan jangning uchinchi kuni Jaloliddin askarlarning 26 mingtasi qirilib, ko'plab xorazmliklar shahid bo'lganiga qaramay, mardlarning maydonni tark etmasligi Vatanparvarlikning haqiqiy oliy ko'rinishi edi. Mo'g'ullar orasida yarador bo'lgan va o'lganlar esa yanada ko'proq edi. Shu katta to'siqni Jaloliddin 4000 askari bilan yengib Hindistonga o'tib keta oldi.

Chingizxon va barcha mo'g'ullar hayratdan barmog'ini tishlar ekan, Chingizxon o'g'illariga yuzlandi: "Otaga berilgan munosib o'g'il shundoq bo'lishi kerak! U shunday qirqinbarot jang maydonidan va daryo girdobidan qutulib himoya qirg'og'iga chiqa oldimi, bu dovyurak hali boshimizga ko'p tahlikalar soladi, undan mislsiz qahramonliklar va tashvishlar kutish mumkin. Shunday bo'lsada o'ldirmang uni, u yashashga haqli!"

Jaloliddin 1231 yil Turkiyaning Diyorbakr shahrida asir tushib, xoinlik tufayli xanjar sanchib o'ldirilgan.

Xulosa sifatida Jaloliddin Manguberdining harbiy sarkardalik dahosi quyidagilarda namoyon bo'lgandi:

mard, jasur jangchi, qobiliyatli lashkarboshi bo'lgan;
sherdek na'ra tortib, o'ljaga tashlangan sherdek shiddat bilan jangga kirar edi;
barcha janglarga karnay - surnay sadolari ostida davlat bayrog'ini xilpiratib kirgan;

mo'g'ullar Jaloliddinga "arra, bolta" deb nom bergan edilarki, u ikki qo'lida boltadan epchillik bilan foydalanib dushmanni oson qirib tashlar, arqon orqali dushmanni oson ilintirar, bu mashqlarni barcha askarlari ham yaxshi egallagan edi;

dushmanning nomdor, kuchli polvonlari bilan yakkama-yakka jang qilib, oson va tez g'alabaga erisha olardi. Tarixiy manbalarga ko'ra, gurjilar bilan bo'lgan bir jang oldidan ikki qo'shin ko'z o'ngida Jaloliddin jussasining bir muncha kichikligiga qaramay, yakkama-yakka olishuvda devqomat bir gurji pahlavonini, so'ng uning uch o'g'lini, keyin yana bir dushman askarini o'ldiradi;

tahlikali vaziyat tug'ilgan hollarda qo'qqisdan shiddat bilan dushman ustiga bostirib borishda shijoatli bo'lgan, dushmanga kutilmagan paytda yashin tezligida zarba bergan, dushman ittifoqchilari bilan qo'shilib ulgurmasdan oldin, ularni alohida tor-mor keltirgan;

qator kuchlar nisbati noteng bo'lgan janglarda harbiy sarkardalik dahosini namoyon eta olgan, u uchun 700 ta ga qarshi 300 ta qo'shin bilan g'alaba qozonish oson bo'lgan;

dushmanlarga nisbatan o'ta shafqatsizlikni namoyon etgan, o'z jangchilarini moddiy va ma'naviy ruhlantira olgan, og'ir, eng murakkab sharoitlarda ham qat'iy tura oluvchi, eng qiyin sinovlardan ham sira qo'rqmaydigan betakror fazilat egasi bo'lgan.

Amir Temur – buyuk harbiy sarkarda, strateg, ilm-fan, madaniyat homiysi, “Temuriylar renessansi” asoschisidir. Mashhur Sharq allomasi, Sharq metodologiyasi asoschisi alloma Ibn Xaldun “Xotiralari”da “Forslar va arablar dunyoda peshvolik asrini o'tab bo'ldi, endi bu vazifa Amir Temur dahosi tufayli turklar qo'liga o'tdi, - degan haqqoniy bahoni bergan edi.

Amir Temur saltanatni boshqarishda “Rosti rusti” – “Adolatli bo'lsang najot topasan”, “Bir kunlik adolatni yuz kunlik toat-ibodatdan afzal” degan shiorlari dunyo hukmdorlarini o'ziga jalb etdi. Uning harbiy boshqaruvdagi adolati “Tuzuklar”dagi “Askarni eng quyi martbadan oliy martabagacha tarbiyalab ko'tarish haqida”gi tuzugida kuzatiladi.

Amir Temurning shijoat va mardlik haqidagi ko'plab g'oyalari o'sha davridayoq harbiy shiorlar sifatida qadrlangan: Mashhur Anqara jangidan oldin Yildirim Boyazid elchilariga Amir Temur mardlik haqidagi aytgan fikri bunga dalildir. Jumladan, “Mard kishi o'z so'ziga vafo qiladi, so'z bilan ish orasida ixtilof bo'lishi – nomardlik alomatidir”.² Yoki, saltanatni boshqarishda, shamshirni nomus va sharaf bilan tutish borasidagi vasiyatida ham mardlik va yurt tashvishi aks etgan.³

Sultoniya arxiyepiskopi Ioann Grinlo o'z xotiralarida “Temurbek arab, fors va turk tillarda bemalol so'zlashadi. Ilmi Qur'on va ilmi fiqhda shunchalik zabardastki, hech qanday musulmon olimi u bilan bu mavzuda bellasha olmaydi. U ulamo, olim va shoirlarni bag'oyat qadrlaydi, e'zozlaydi, sababi uning o'zi olim va donishmanddir. Temurbekdek mustahkam xotiraga ega kishi dunyoga kelmagan bo'lsa kerak”, deydi.

Ibn Arabshoh Amir Temurning elchilarga yurtning ko'zgusi sifatida qaraganini bilib olamiz, Jumladan, Misrdan Baysaq ismli elchi kelganida, Amir Temur: “Isming nima? – Baysaq, - deb javob bergach, bu xunuk so'z qanday ma'noni anglatadi?, - deb so'raydi. E, Mavlono! Men buni bilmayman, deydi. Shunda amir Temur, “Sen hali o'z isming ma'nosini bilmaysanku, qanday qilib maktub keltirishga yaraysan?”, - deydi⁴.

² Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan o'giruvchi Yunusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir A.O'rinboyev. Izohlar va lug'atlarni tuzuvchi H.Karomatov, O.Bo'riyev; Hofizi Abruning “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i – (“Ilova”)ni forsiydan o'giruvchi va izohlarni tuzuvchi O.Bo'riyev. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. - B. 327.

³ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma... - B. 296-297.

⁴ Ibn Arabshoh.. 1-kitob, - B. 239-240.

Amir Temur - strateg, uning muvaffaqiyatli g'alabalari, olib borgan chuqur o'ylangan strategiya va taktikalari esa mutlaqo noyobdir. Strategiyada esa Amir Temur mahoratini ko'rsatuvchi asosiy - jihat, oldiga qo'yilgan maqsadga jangsiz erishish qobiliyatidir⁵. Shuningdek, kam sonli qo'shin bilan to'g'ri usul va manyovrlar tanlab, kam talafot bilan jangda g'alabaga erishishdir.

"Tuzuklar"da harbiy hiylalar bilan erishilgan g'alabalardan misollar keltirilgan:

Amir Temur jangovar qo'shini tuzdi, harbiy boshqaruv tizimida yillar davomida, tajriba asosida qator islohotlar qilib, yangiliklar kiritdi. Jumladan, mashvaratlar (harbiy kengash), harbiy mansablar joriy etildi, nomlari turkiylashtirildi, yangi harbiy texnika va qurollar, jangovar bayroqlar, harbiy musiqa va kiyimlar. Harbiy bo'linmalarni jangda manevrlarni bajarishi uchun turli askarlar kiyimi joriy etilgan. Yorqin ranglar, binafsha, sariq, yashil kiyimlar va otlarining bargustivoni, qurol-aslahasi, bayroqlarning rangi, harbiy musiqasi bilan farqlangan. Nog'ora, qavs, burg'u, nafirlar chalinib, musiqa sadolari ostida tartibli harakatlangan.⁶ Harbiy paradlar o'tkazilgan.

Qo'shin o'ntalik askariy birikmalar asosida lashkar quyidagi birikmalarga ega bo'lgan. Qo'shinni 100 ta o'nbegi, 100 ta yuzbegi, 100 ta mingbegi, 13 ta tumanbegilar (o'n minglik) boshqarganlar. Bo'linmalarga 313 bek boshchilik qilgan. Nega 313 desangiz, Qur'onda keltirilgan mashhur "Badr" janggida oz sonli qo'shin bilan o'zidan bir necha katta qo'shin ustidan g'alaba qozonilgan.

100 tasi - o'nbegi, 100 tasi – yuzbegi, 100 tasi – mingbegi va 13 tasi tumanbegilar bo'lgan. Tumanlarga Sohibqironning farzandlari, nabiralari hamda amirlar, Shayx Nuriddin, Hoji Sayfuddin, Shohmalik, Allohdod, Jahonshoh singari tajribali lashkarboshilar rahbarlik qilganlar⁷. Nomdor bek va amirlar qahramonliklari, jangchilarning maydondagi vajohati haqida Ibn Arabshoh⁸ quyidagicha yoritilgan: "... Farmonga muvofiq jang kunida burgutdek shijoat va quvvat qanoti bilan uchadigan, kabutarga hamla qilayotgan lochindek dushmanga tashlanadigan, qilich tortganida chiniy oynasida o'lim yuzidan o'zga narsani ko'rmaydigan, nog'orayu karnay nag'masini eshitganda o'lim uchun tug'ilinglar, degan taronadan o'zgani eshitmaydigan botirlar jang maydoniga jo'nadi". Shomiy ham ushbu vajohatni batafsil yoritgan.

Amir Temur qo'shinni aniq sonli, qat'iy tashkiliy tuzilma, aniq saflanish tartibi va tizimli jangovar tartib (yosol)ni joriy qildi. Qo'shin avval besh qo'lga, 1391 yili To'xtamish bilan Qunduzchada bo'lgan jangda yetti qism – qo'lga ajratilgan, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan.

⁵ Vladimir Kvint. Amir Temurning strategik yetakchiligi: Tuzuklarga izohlar.

⁶ Yazdiy – B. 174.

⁷ O'sha joyda. – B. 14-15.

⁸ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) / So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir A.O'rinboev. 1-kitob. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 328 b.; 2 – kitob. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 192 b.

Qo'shinda asosiy o'rinni quyidagi bo'linmalar egallagan: yengil piyodalar - Chingizxon piyodalarga kam e'tibor qaratgan.

Otliq qo'shin yengil suvoriy - Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatidan butkul yangi ko'rinishdagi qismlar **qanbulni (zahira, rezerv)** joriy etgani bo'lgan. Qanbullar eng botir va tajribali askarlardan tuzilgan. Muhorabada jang oqibatini ana shu izofa qism hal qilgan.

Og'ir qurolli (zirhlangan branirovanniy ritsar) otliqlar - mo'g'ullarda og'ir qurolli otliqlar faqat Chingizxonni qo'riqlagan kam ammo kuchli maxsus qo'shin "keshik" bo'lgan.

Amir Temur bu maxsus bo'linmani jangning hal qiluvchi pallasida ko'plab tashlagan. 1391 yildagi To'xtamishxon bilan Qunduzcha va 1402 yildagi Yildirim Boyazid bilan Anqara janglariga Amir Temur shunday bo'linmalarni tashlagan.

Muiniddin Natanziy "Muntaxab ut – tavorixi Muiniy" asarida buyuk g'alaba haqida - nog'ora va karnaylar sadosi ostida po'lat sovut kiygan temir qalbli botirlarning haybati dushman dilidan sabr bardoshni quvib chiqardi. Yazdiy ham Amir Temurning Anqara jangidan oldin Sivos sahosida o'tkazilgan harbiy ko'rikni yoritgan. Qo'shinning otliq askarlari boshlaridan to otlarining tuyog'igacha temirdan bo'lgan bo'lak-bo'lak mukammal harbiy libosda edilar.⁹

Asosiy jangovar bo'linmalardan tashqari quyidagi harbiy-yordamchi qismlar ham bo'lgan:

naftandozlar - "Yunon olovi"ni otuvchilar;

"Ra'dandozlar" – (o'tirg'itgichlar), Qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar;

"Pontonchilar" - maxsus ustalar otryadi bo'lib, maxsus piyoda qismlar (alpinistlar).

Zahiriddin Muhammad Bobur - iste'dodli sarkarda, yoshligidan dovyurakligi va jasurligi uchun Bobur deyishgan. "Barb" arabcha "yo'lbars" degan ma'noni bildiradi.

Bobur kuchlar noteng janglarda ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritgan:

1. Bobur 1496-1503 yillarda saltanat faxri bo'lgan Samarqandni dushmandan olish uchun tengsiz janglarga kirishib uch marta shaharni qo'lga kiritdi. U Shayboniyxonning 15 minglik qo'shini turgan Samarqandga o'zining bor – yo'g'i 200 kishilik askari bilan hujum qilishga jur'at etib dushmanni qal'adan haydashga erishgan. Samarqandni birinchi marta 1497-1498 yilda 100 kun, ikkinchi marta 1499-1500 yilda 6 oy, uchinchi marta 1511 yilning oxirida Shayboniyxon o'limidan keyin yana kelib, egallab yana 6 oy hukmronlik qiladi. Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxondan jangda yengilib Qobulga chiqib ketadi.

2. 1526 yil aprel oyida Dehli yaqinidagi Panipat janggida Bobur o'zining **12 ming** askari bilan **100 mingga** yaqin katta qo'shin va 2 mingga yaqin harbiy

⁹ Yazdiy – B. 256.

filga ega bo'lgan Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni tor-mor qilgan muvaffaqiyatli g'alaba qozonadi. Bu jangda son jihatdan juda katta dushman qo'shinini juda oz sonli lashkar bilan tor-mor etgani harbiy san'at tarixidan o'rin olgan. Bunda **"to'lg'ama"** deb atalgan harbiy taktikani ishlatib, porox bilan ishlaydigan harbiy qurol – **"to'fak"ni** va **"Farangi to'pi"**, aravalarga ham o'rnatilgan **"zarbzan qurol" kabi** harbiy aslahalarni joriy etgan. Bobur mutlaqo yangi qurol - artilleriya aslahasining yangi ilk namunasi yaratgan.

U jangda oldinda borar, qiyin sharoitlarda hamma bilan birga bo'lib, mashaqqatni baham ko'rar edi. Masalan, Bobur Hirotdaligida Qobulda notinchlik yuz berib, tog' yo'li bilan Qobulga qaytishga majbur bo'ladi. Ular tog'da otni, odamni ko'madigan qalin qorga duch keladilar. Shunda Bobur askarlari bilan barobar yurib, qor tepib, yo'l ochishadi. Kechasi uni dam olgani g'orga taklif qilganlarida ko'nmaydi, boshqalar qatori ochiq havoda tunaydi va "Do'stlar bilan birga o'lish to'ydir deydi"¹⁰.

Jangga kirish oldidan Mirzo Boburning askarlariga murojaati juda ta'sirlidir. "Oralaringizda o'lmaydigan, abadiy tirik qoladiganingiz bormi? Quyosh botish uchun chiqadi, odamzot o'lish uchun tug'iladi. Bu ayni haqiqat! It ham o'ladi, yigit ham o'ladi. Lekin ularning o'limi orasida farq bor. It nafi sabab o'lsa, yigit hamiyatini, yurtini, or-nomusini himoya qilib jon taslim etadi. Yigit kishi o'z elini, Vatanini, shon-shavkatini, din-diyonatini, ona tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash yo'lida vafot etsa bu sharaflil o'limdir. Avlodlarning erki, tinch va osoyishta yashashidan ulug' ne'mat bormi, o'zi"

Xulosa sifatida aytish joizki, buyuk sarkardalarning harbiy dahosi quyidagi jihatlarda namoyon bo'lgan:

muntazam qo'shin tuzib, askarlarning jasurligi, harbiy tayyorgarligi, jismoniy va ayniqsa ma'naviy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan;

ular doim qo'shinning oldingi safida yo'l boshlab, og'ir nuqtalarda shaxsiy namuna va qahramonlik ko'rsatganlar; jangsiz ham streteg sifatida taktika, manyovr va ruhiy atakalarni o'z o'rnida ishlatib g'alabaga erishganlar;

buyuk sarkardalar dushman bilan **"sultoni"** (**"yakkama-yakka"**) jangga chorlash orqali jang taqdirini hal qilish;

kuchlar nisbati noteng bo'lgan janglarga kirib, ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritganlar;

janglarga karnay - surnay sadolari ostida, davlat bayrog'ini xilpiratib, sherdek na'ra tortib, o'ljaga tashlangan sherdek shiddat bilan "Ur, ho, ur!, - deb, qo'qqisdan shiddatli hujum qilishgan, dushman kuchlarini bir – biri bilan birlashtirmaslikka erishishgan;

¹⁰ Zaxiriddin Muxammad Babur. Baburidi: Sobraniye ensiklopedicheskix, nauchnix i nauchno-populyarnix materialov. T.I. (A-B-V)/ avt. Sost. Sh.SH.Rustamxujayev. – M.: Yaziki Narodov Mira, 2019. - S. 397.

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

jangovar tartibi (yosol)ni takomillashtirilgan, Amir Temur og'ir qurolli (zirhlangan) otlilarni joriy qilgan, qo'shin 7 qismga ajratilib, "qanbul" bilan ta'minlangan, Bobur esa "to'lg'ama" taktikasini kiritgan;

sarkardalar Sharqda yangi harbiy texnikalarni joriy etganlar. Amir Temur Sharqda o't ochar qurol "to'p-ra'd"ni, Bobur katta to'pponcha – "to'fak", "farangi to'pi" va "zarbzan qurol"ni kiritgan;

jangdan oldin sarkardalarning askarlarni ruhlantirish uchun vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan jang oldi nutqlari bo'lgan;

vaziyatni tez payqab oluvchi strateg, raqiblarining zaif tomonlarini sezgirlik bilan aniqlab oluvchi, qiyin sinovlardan ham qo'rqmaydigan, og'ir sharoitlarda qat'iy mardona qarorlar qabul qila olganlar;

ular himmatli va saxovatpesha podshoh bo'lganlar. Ularning insonlarga muruvvati, kechirimliligi va shafqati keng bo'lib, xatto dushmanlarga ham muruvvatli bo'lganlar.

Buyuk harbiy sarkardalarning harbiy mahorati va mashhur janglari, jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi hali ham Vatanimiz va xorij sharqshunosligida maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmagan. Ushbu harbiy merosni tarixiy manbalar asosida ilmiy tadqiq etish, jahon harbiy merosiga qo'shgan hissasi baho berish - bugungi harbiy tarixning muhim va dolzarb muammolaridandir.

